

**“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI TALABLARIGA OID FIKRLARNING BAYONI**

Abduraxmonova Zumrad Normurot qizi

Chirchiq pedagogika universiteti

2-kurs magistratura talabasi.

zumradadurahmonova121@gmail.com

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada nutq madaniyatining vujudga kelish tarixi, A.Navoiyning Hayrat ul-abror “ dostonida nutq va til ta’riflari talqini, asardagi misralar va so‘zlar sharhi,Fasohatli nutq tuzish talablari bayon qilindi.

**Kalit so‘zlar:** Dostondagi lisoniy va nolisoniy birliklar, birliklarning qiyosiy tahlili, til birliklarining muqobil variantlari sharhi. Madaniy nutq tushunchasi, Nutqning madaniyligiga xizmat qiluvchi vositalar.

**Annotation**

This article describes the history of speech culture, the interpretation of speech and language definitions in Alisher Navoi's „Hayrat ul-abror“ epic, the review of verses and words in the work, and the requirements for making a beautiful speech.

**Keywords:** Linguistic and non-linguistic units in the epic, comparative analysis of units, review of alternative versions of language units, concept of cultural speech, tools serving the culture of speech.

**Аннотация**

В данной статье рассказывается об истории речевой культуры, трактовке речевых и языковых определений в эпосе Алишера Навои, разборе стихов и слов в произведении, требованиях к красивому выступлению.

**Ключевые слова:** Лингвистические и неязыковые единицы в эпосе, сравнительный анализ единиц, рассмотрение альтернативных вариантов языковых единиц, понятие культурной речи, средства обслуживания культуры речи.

### **Kirish**

Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy o‘zgarishlar, avvalo, tilda o‘z ifodasini topishi sababli adabiy tilni nazorat qilish, uning sofligi, madaniyligi uchun kurashish har doim dolzarblik kasb etgan. Sharqda nutq madaniyati masalalarini o‘rganishga qadimdayoq e’tibor qaratilgan. Jahan tilshunosligida til va nutqqa bag‘ishlangan masalalar dunyo olimlari tomonidan inson faoliyatining o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Mazkur masalalarning markaziy nuqtasi sifatida tilning uslubiy va estetik jihatlari, nutqning madaniy va axloqiy tamoyillar asosida shakllantirilishi kabilarga e’tibor qaratilib kelingan. Nutqning kommunikativ sifati masalasi avvaldan ham markaziy masala hisoblangan, biroq bu mavzu yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilmagan. Nutq madaniyati haqidagi dastlabki ta’limotlar qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo‘lsada , unga qadar Misr , Assuriya , Vavilon va Hindistonda ham asarlar orqali nutq madaniyatiga oid qarashlarning mavjudligiga guvohmiz. Sharqda ham nutq madaniyati uning kommunikativ sifatlari xususida turli xil allomalarning turli talqinlari mavjud. Shular orasida buyuk tilshunos Alisher Navoiyning qarashlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Navoiy til va nutq haqida fikr yuritar ekan ularni har ikkisini alohida-alohida bir olam ekanligini aytadilar.

Navoiy so‘zning hashamadorligiga emas, haqqoniyligiga e’tiorlarini qaratadilar. Fikring xalq uchun foydali va tushunarli bo‘lsin desang, sodda tilda gapir deydi : „ So‘zki fasohat zevaridin muzayyan emasdир, anga chinlik zevari basdur.

Yolg‘onchi har necha so‘zinda fasihiroq , so‘zi qabihroq. Chin so‘z nechakim betakalluf , qoyilg‘i soddalig‘idin yo‘q taassuf” . Bu yuqoridagi fikrlardan ham ko‘rinadiki , Navoiy so‘zda to‘g‘rilik sifatini nutq so‘zlovchining maqsadini yetkazishdagi ahamiyatini o‘z mulohazalarida yaqqol ko‘rsatib berdilar.

Navoiyning talqinicha , olam yaratilmasdan oldin so‘z paydo bo‘lgan. Insonlar nutqi orqali hayvondan farq qildi. Shu nutqi sabab to‘rt sadaf gavharining durjiga aylandi deya e’tirof etadilar. Quyidagi misra esa buning yaqqol dalilidir.

So‘z guharig‘a erur oncha sharaf,  
Kim bo‘la olmas anga gavhar sadaf.  
To‘rt sadaf gavharining durji ul,  
Yetti falak axtarining burji ul

Navoiynig fikricha so‘zning qadri shu darajadaki , uning butun olam qudrati tarafidan tufha etilganidir. Navoiy bu o ‘rinda so‘zning kommunikativlik xususiyatini ham nazarda tutadi. Insonlar muloqotga kirishishi uchun , albatta , aloqa kommunikativlik sifatiga ega bo‘lishi kerak. Bir inson boshqa bir insonni tushunishi uchun ular birinchи galda muloqot qilishi lozim. Muloqot bir necha usullar ilan amalga oshiriladi. Bular quyidagilar.

Og‘zaki

Yozma

Imo-ishora

Bular ichida og‘zaki va yozma muloqot shakllari ancha keng iste’molda, imo-ishoralar orqali kommunikativlik esa biroz passivroq foydalaniladi.

Navoiy bobomiz og‘zaki shakldagi muloqot ko‘rinishi yuzasidan atroflicha o‘rinli , mulohazaga boy fikrlar berib o‘tganlar.

Navoiy so‘zga uning fikr ifodalash vositasi sifatidagi qiymatiga yuqori baho beradilar.

Navoiy nutq madaniyligi , nutq odobi haqida fikr yuritar ekan , ko‘p holda nutqni bezovchi , uning to‘g‘ri va maqsadga muvofiq bo‘luvchi xususiyatlarini ta’minlovchi tomonlarini ta’kidlashga alohida e’tibor beradi.Shu bilan birga ,adib nutqdagi salbiy xususiyatlarning nutq madaniyati va odobiga zid holat ekanligini alohida ta’kidlaydi. Navoiy ijodida nutqning lisoniy va noslisoniy omillari haqidagi fikrlar mavjud.

Hozir nutqning lisoniy xususiyatlari xususidagi fikrlari talqini bilan tanishib chiqamiz.

Navoiy nutqni fasoxatli bo‘lishini ta’kidlar ekanlar, har qanday nutq ham fasoxatli bo‘lmasligini ta’kidlaydilar.

Fasoxatli nutq faqatgina tilni bilish, uning lisoniy imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish orqaligina yuzaga chiqmaydi. Bunday nutq lisoniy omillar ilan bir qatorda , nutqiy etika va estetika , nutq egasi va tinglovchilarning o‘zaro muloqoti, nutqiy vaziyat va muloqotlarning ruhiy holati , so‘zlovchining tilga munosabati bilan ham bog‘liqdir.

Fasoxatli nutq quyidagi talablarga ega bo‘lishini ta’kidlaydilar.

Nutq mazmunli bo‘lishi;

So‘zni ma’nosiga mos tanlay olish;

So‘zlaganda muloqot odobi qoidalariga amal qilish;

Muloqot chog‘ida tinglovchining kayfiyatini hisobga olish ;

Nutq muloyim va yoqimli bo‘lishi;

Nutqning to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishiga;

Nutqning ifodaliligi , uning yetkazilish jarayoni turli xil to‘xtam , keraksiz pauzalardan xoli;

Nutqda nutqning nafisligini buzuvchi usurlardan yiroq bo‘lishi;

Xullas , bunday kommunikativ xususiyatlarning juda ko‘plariga izoh berib o‘tganlar.

„ Hayrat ul-abror “ dostonidagi ba‘zi bir misralar sharhi orqali biz nutqning fasoxatli termini izohi ma’nosini yanada yaqqolroq anglaymiz.

Navoiy nutqning mazmundor bo‘lishiga e’tibor qaratib , bunday nutq hattoki toshni ham eritishini aytadi. Aslida tosh qalb ma’nosidagi ko‘chma ma’no bo‘lsa ham u so‘zlovchiga juda katta ma’suliyat yuklaydi.

Nukta suv yanlig‘ erutur toshni,

Topsa haqiqat o‘tidin choshni.

(, Hayrat ul- abror “ , 54-bet ) Yuqoridagi misrani sharhlaydigan bo‘lsak , so‘z tosh qalblarni suv kabi eritadi. Qachonki u haqiqatni so‘zlasda degan fikr anglashiladi. Yana fikrini davom ettirib, shunday yozadilar:

Nazmki , ma’ni anga marg‘u emas,

Ahli maoniy qoshida xo‘b emas. (, Hayrat ul- abror “ , 62-bet

Xullas , Navoiy nutqning mazmunli bo‘lishini izohlar ekan, uning eng yuqori nuqtasini she’riy nutqda deb izohlaydi.

Navoiy nutqning tozalik, poklik jihatiga ham to‘xtalib, so‘zning nolisoniy omillari hisoblangan, yolg‘onchilik, chaqmachaqarlik, qo‘pollik kabi omillariga zid tarzda ularga qarshi ishlataladi. Shoiring fikricha , kimki o‘zi to‘g‘ri bo‘lsa , uning qilgan ishlari aytgan so‘zi ham pok bo‘lishi, aksincha bo‘lganda esa , uning o‘zi singari so‘zlagan so‘zi ham nopol ekanligini aytadilar. Bu xususida mutafakkir oshiq qalbli kishi siyomosi orqali gavdalantirib beradi.

Oshiq ani bilki , erur dardnok,

Ham tili, ham ko‘ziyu, ham ko‘ngli pok

(,, Hayrat ul- abror ““, 193-bet )

Navoiy bobomizning talqinicha, oshiqlar nutqi pok bo‘lmog ‘Ikerak. Chunki oshiq tilida uning ahd-u vafosi , sadoqati yotadi. Mutafakkir nutqning qisqa hamda mazmundor bo‘lishiga diqqat qaratadi. Buni quydagicha ifodalaydilar:

Yorab , agar kalomim uzun ,

Mundin ham jurm qilibmen fuzun.

Baytda so‘zning uzunligi tinglovchini zeriktirib qo‘yishi xususidagi e’tiborli jihat o‘z aksini topgan. Tilning lisoniy omillarini sanasak, juda ko ‘p . Endi fasohatli nutq sohibi bo ‘lish uchun tilga bog‘liq bo‘lмаган nolisoniy omillar ham mavjud shular haqida ham mutafakkirning qarashlari bilan tanishib chiqib , keyin madaniy nutq tushunchasini izohini to‘la anglash imkoniga ega bo‘lamiz.

Hozirgi kunda nutq madaniyatining asosiy talabi nutqning ma’lum maqsadga yo‘naltirgan bo‘lishi. Shu nuqtai nazar bilan yondashilsa, Navoiyning quyidagi fikrlarida nutq madaniyati shu talabiga yaqqol misol bo‘ladi.

Yanma bukim, yaxshi- yamon dema so‘z,

El yomon-u yaxshiga solma ko‘z .

(,, Hayrat ul- abror ““, 162-bet)

Navoiyning fikricha nutq kishilar diqqatini tortadigan, e’tiborga loyiq tuzilishi kerak deydilar. Uning e’tirificha, nutq ma’lum ezgu g‘oyani o‘zida mujassam qilgan bo‘lishi lozim. Uning fikricha foydasiz so‘zni aytib , hammaning g‘azabiga yo‘liqmasdan, undan ko‘ra sukut saqlgan ma’qul deydilar:

Garchi etib jomi hidoyat manga,

So‘zda sukut o‘ldi bag‘oyat manga.

(,, Hayrat ul- abror ““, 63-bet )

Fikrlarini mutassil davom ettirib , nutqning tinglovchining ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi ,madaniy saviyasi , dunyoqarashini hisobga olib yuzaga chiqarish lozimligini aytadi.Quyidagi misrada buni shunday izohlaydilar:

Har biriga o‘zgacha so‘z muddao,

O‘zgacha so‘z demaki, yuz muddao.

(,, Hayrat ul- abror ““, 334-bet )

Nutq sohibi nutqini chin dildan , yurakdan aytish kerakligini aytadilar.

Chin ko‘ngildan aytigan nutqning ,ta’siri kuchli bo‘ladi. So‘zlaganda aytigan so‘ziga sodiq bo‘lish ham mardlikning belgisi hisoblanishini aytadilar.

Nutq tuzishda shu yuqorida qayd etilgan izohlarga e’tibor berilsa, albatta maqsadga muvofiq bo‘ladi. Navoiy bobomizning nafaqat „Hayrat ul-abror “ dostoni boshqa asarlarida ham fasoxatli, go‘zal nutq sohibi bo‘lishga oid bir qancha ibratlari fikrlar mavjud. Biz ularni o‘rganish orqali o‘z nutq imizda-

gi nutqimizni jozibasini buzuvchi til birliklardan tozalab, nutqimiz sofligiga erishaylik.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri ham adabiy til qonun va qoidalariiga amal qilgan holda o‘z fikrini aniq, to‘g‘ri , tushunarli va barchaga birdek yoqadigan qilib ifodalay oladigan yosh avlodni tarbiyalashdir. Shuning uchun

har bir fuqaro o‘z ona tilini sevishi , uni ardoqlashi, til birliklaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanishi lozim.

Chunki muhtaram birinchi prezidentimiz I. Karimov aytgalaridek: Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar ortasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili bu millatning ruhidir.. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo ‘lishi muqarardir ‘ ‘ .

Yuqoridagi fikrdan ham ko‘rinib turibdiki, ona tilimizni asrashimiz, boy va go‘zal tilimizni boshqa tillardan qolishmasligini jahon mamlakatlari xalqlariga ko‘rsatishimiz lozim. Shunday qila olsakkina biz tilimiz taraqqiyotiga erishamiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktyabrdagi Mamlakatimizda o‘zek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora -tadbirlari to‘g‘risidagi “ farmonida ham, aynan shu tildan oqilona foydalanish nutq madaniyatini oshirish xususida atroflicha fikrlar bildirib o‘tganlar. Bularga quydagilar belgilansin:

mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish;

ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish , uning ilm-fan sifatidagi nufuzini oshirish;

davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish, va aholining nutq madaniyati oshirish;

davlat tilining xalqaro miqyosda o‘rni va nufuzini oshirish , bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

Yuqoridagilardan ham til tizimi, uning hayotimizda o‘zligimizni , o‘z o‘rnimizni topishdagi qiymatini naqadar beqiyos ekanligini anglash mumkin. So‘zimni xulosasi sifatida mutafakkir bobomiz Adulla Avloniy ning so‘zlari bilan aytganda , „Har bir millatning dunyoda orlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo‘qotmak , millatnining ruhini yo‘qotmakdur “ .

Tilimiz sofligini asrashga say-harakat qilish biz yoshlarni asosiy burchimizdir.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. R. Rasulov . Umumiyl tilshunoslik .-T.,2021.
2. R. Rasulov . O‘qituvchi nutqi madaniyati va notiqlik san’ati.-T., 2020
3. O‘. Islomov .Alisher Navoiy asarlarida nutq madaiyati va muloqot odobi talqinlari .- Toshkent -2020.
4. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang‘ich ta’lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, 403(1), 18-19.
5. Кадирова, О. Х., Кадирова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. Журнал филологических исследований, 1(2), 156-160.
6. Kadirova, O. K. (2022). Linguopoetics is an Important Research Field of Linguistics. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 10(12), 756-759.
7. Kadyrova, Z. Z.; Kadyrova, O. Kh. (2022). Lithosonyms Used in the Works of Alisher Navoi. NeuroQuantology, 12(20), 1907-1913.

8. Kadirova, O. K. (2022). Use of the Neurolinguistic Programming Method to Achieve the Goals of the Educational Process. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 10(12), 188-192.
9. Илёсов, Б. А., & Кадырова, О. Х. (2019). Поэзии А. Блока в узбекских переводах. in переводческий дискурс: междисциплинарный подход (pp. 133-138).
10. Kadyrova, O. K. (2021). Foundations of artistic synthesis in the literatures of the west and the east at the present stage. Innovative engineering and management research, 10(01), 227-232.
11. Кадирова, О. Х. (2021). Использование учебного перевода как один эффективных приемов обучения русскому языку как иностранному в средней школе. Современное образование и воспитание, 1(1), 289-294.